

XXI ASR BADIY TA'LIM METODIKASI VA NAZARIYASI: TAHLIL VA NATIJALAR

Abdullayev Sa'dulla Asadullayevich

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy

rassomlik va dizayn instituti,

Dastgohli rangtasvir kafedrası professori, akademik

ANNOTATSIYA

Maqolada XXI asr badiiy ta'lim metodikasi va nazariyasi tahlili va natijalari tadqiqi olib borilgan. Shuningdek, tasviriy san'atga kirib kelayotgan innovatsiyalarni badiiy ta'limda muvaffaqiyatli joriy etilishi, an'analari, tarixiy tajribasi va tasviriy san'at pedagogikasi asosiy yo'nalishlari muntazam rivoji va yangilanish jarayonlari tahlilidan iborat.

***Kalit so'zlar:** Badiiy ta'lim, badiiy maktab, akademik tendensiyalardagi chizmatasvir, rangtasvir va kompozitsiya, ta'lim metodikasi nazariy jihatlari, ilmiy tahlil, yuqori malakali mutaxassis, tasviriy san'at ustasi.*

АННОТАЦИЯ

В статье проанализирована методология и теория художественного образования XXI века и изучены результаты. Также проанализирована успешный внедрения инноваций в художественное образование, традиций, исторического опыта и основных направлений изобразительной педагогики и процессов обновления.

***Ключевые слова:** Художественное образование, художественная школа, рисунок, живопись и композиция в академических направлениях, теоретические аспекты методики обучения, научный анализ, высококвалифицированный специалист, мастер изобразительного искусства.*

ABSTRACT

The article analyzes the methodology and theory of art education in the XXI century and examines the results. It also analyzes the successful implementation of innovations in art education, traditions, historical experience and the main directions of fine art pedagogy and renewal processes.

***Keywords:** Art education, art school, realistic, academic methods of art education, theoretical principles, scientific analysis, the formation of a creative person, high professionalism.*

Kirish. Badiiy ta'lim shaxsni va ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish, madaniy merosni rivojlantirishda doimo muhim rol o'ynagan. XXI asrda raqamlashtirish, globallashtirish, ijtimoiy-madaniy kontekstlarning o'zgarishi va yangi texnologiyalarni rivojlantirish kabi yangi muammolarga duch keldi. Bu badiiy ta'limning uslubiy yondashuvlari va nazariy asoslarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Rassom uchun professional mahorat ko'nikmalarini egallashi badiiy ta'lim oldiga qo'yilgan talablarning asosiysi, ammo bu jarayonda, shubhasiz iqtidorning ahamiyati muhimdir. Badiiy ta'limda professional faoliyat bilan shug'ullanishdagi muvaffaqiyat, avvalo iqtidorni rivojlantirish bilan chambarchas bog'likdir. Tasviriy san'atga kirib kelayotgan innovatsiyalarni badiiy ta'limda muvaffaqiyatli joriy etilishi, an'analari, tarixiy tajribasi va tasviriy san'at pedagogikasi asosiy yo'nalishlari muntazam rivoji va yangilanib borilishi;

- bo'lajak san'atkor badiiy ijodning tasviriy san'atga xos ixtisosliklari, amaliy san'at va dizayn sohalarida ijod qilmasin uning professional darajada realistik tasvir ko'nikmalarini (chizmatasvir, rangtasvir, kompozitsiya asoslari) egallashi, ya'ni dastgohli rangtasvir vositasida ijodiylikni shakllantirishda talab etiladigan sifatlarni o'zlashtirishi zarur;

- shu bilan bir qatorda amaliy san'at va dizayn sohalarida umumkasbiy hisoblangan chizmatasvir va rangtasvir ta'lim xususiyatlarini inobatga olmaslikning ham iloji yo'q.

Bu haqida olim K.B. Akilova: "Xalq amaliy san'ati estetikasining prinsipial darajasi mohiyatini anglamaslik badiiy xunarmandchilik asarlarini yaratish jarayoniga salbiy ta'sir etishi nafaqat badiiy ishlab chiqarish sohalarida, balki badiiy ta'limiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib keldi.

Ular maxsus fanlardagi an'ana, kanon, shartlilik, bezaklilik va ularning texnologiyasi singari xususiyatlari bo'lgan holda, akademik hisoblangan chizmatasvir, rangtasvirda uch o'lchamlilik doirasida fikrlash zaruriyati, undagi tekis yuza xususiyatlari yosh talabalarga atrof-muhit va soha xususiyatlari borasida ikkilanish keltirib chiqarmoqda. Obrazlilik ifodasining bir ko'rinishidan ikkinchi ko'rinishiga bo'lgan e'tibor yoshlardagi anglash xususiyatlariga og'irlik qilmoqda"¹, - deb yozadi.

Bunday anglashmovchiliklar hozirgi kunda ham saqlanib qolmoqda. Yuqorida ta'kidlanganlar nafaqat xalq amaliy san'ati, balki dekorativ amaliy san'at va dizayn sohalarida umumkasbiy hisoblangan chizmatasvir va rangtasvirga o'qitish metodikasiga ham ta'lluqli.

Shuningdek, taniqli olim L. Rempel: "Dekorativ san'at o'z qonuniyatiga ega; undagi tasvir elementlari tasviriy bo'lmagan elemenlarga moslashtiriladi. Tekis

¹ Акилова К.Б. Народное декоративно-прикладное искусство Узбекистана. XX век – Алматы.:PRINT-S,2005.–228. – 54 с.

yuzalar asosidagi san'atlar sintezi sharq o'rta asrlar san'atining etakchi prinsipi hisoblanadi...",² - deydi.

Darhaqiqat, amaliy sohalarida K.Akilova ta'kidlagandek, chizmatasvir va rangtasvir fanlar dasturlari ushbu soha ta'limi metodik talablari asosidagi xususiyatlarini inobatga olgan xolda yangi o'quv dasturlarini tayyorlanishi zaruriyati maqsadga muvofiq ekanligi shubhasiz. Sohalar xususiyatlariga mos tarzda chizmatasvir va rangtasvir fanlari o'quv topshiriqlarining shakl ifodalarida ma'lum darajadagi shartlilik va dekorativlikka xoslik va shunga mos tarzda tasvirlar adekvat bo'lmagan nisbiy shakl hamda nisbiy chuqurlik doirasida shakllantirilishi ta'lim sohalarida metodik asoslari darajasini ta'minlagan bo'lar edi. Unda hamdo'stlik mamlakatlarining ushbu fanlarni o'qitishdagi tajribalarini o'rganish ham foydadan xoli emas.

Shu ma'noda rangtasvir tasviriy san'at ixtisosliklari ta'lim standartlari va dasturlari hamda dekorativ amaliy san'at va dizayn sohalar uchun ham uning xususiyatlarini inobatga olgan xolda ta'lim me'yoriy hujjatlariga asos sifatida xizmat qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. XXI asrda badiiy ta'lim metodologiyasi bir nechta asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi. Zamonaviy san'at ta'limi dasturlari akademik badiiy ta'lim (rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika) yangi dasturlar asosida, multimedia va dizayn texnologiyalari kabi yangi yondashuvlar integratsiyasi bilan birlashtiradi. Bu o'quvchilarda zamonaviy dunyoda dolzarb bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi.

Bo'lajak rassom uchun professional mahorat ko'nikmalarini egallash badiiy ta'lim oldiga qo'yilgan talablarning asosiysi, ammo bu jarayonda shubhasiz iqtidorning ahamiyati beqiyos. Badiiy ta'limda professional faoliyat bilan shug'ullanishdagi muvaffaqiyat, avvalo iqtidorni rivojlantirish bilan bog'liqdir. Umuman, insoniyat o'zining madaniy rivoji mobaynida hozirgi davr darajasiga erishuvi qobiliyat, iqtidor, iste'dod, talant darajasidagi sifatlarining natijasidir.

Ta'lim mobaynida talaba akademik badiiy ta'lim qonun-qoidalarini va nazariy asoslari, jism va jussalarning konstruktiv tizimi qonuniyatlari, yorug' soyalar, rangshunoslik, kompozitsiya (loyihalash) qonun va koidalarini o'ziga singdirgan holda ijodiy faoliyatida foydalanishi vako'nikmalar tarzida ularni o'zida shakllantirishi talab etiladi. Naturani badiiy ko'rish va analiz qila bilish ko'nikmasi hamda o'z o'quv topshirig'ini natura bilan solishtirgan holda tasvirlashishu bilan bir qatorda, uzoq va qisqa muddatli ish jarayonini bajarish ko'nikmasini egallashi hamda yaxlitlikdan detallarga, detallardan yaxlitlikka tariqasida ish jarayonini yurita bilishi, shu bilan bir

² Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. - М., Искусство, 1982. - 14 с.

qatorda yosh rassomda badiiy ijodiyotning muhim bir jihati bo'lgan tasvirlanayotgan insonning psixologik holati, hissiyoti, kayfiyati va fikr doirasi, yaxlit olganda esa, qahramonning psixologik dunyosini ko'rsata bilishi talab etiladi. Badiiy ta'lim metodikasida maqsadlarni asta-sekin murakkablasha borishi va har bir vazifani mukammal ochib berilishi, ya'ni qanday boshlash, so'ngra nima ishlarni bajarish va qanday tugallashni o'rganishning ahamiyati beqiyos. Bunda aytilganlar o'quv jarayonining barcha davrlarida, uning ilk qadamlarida ham va uning yakunida ham birday ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar. Mohiyatan, K.Behzod Milliy rassomlik va dizayn instituti va yurtimizdagi Pedagogik yo'nalishdagi institut va universitetlardagi o'quv jarayoni mobaynida talabalar Badiiy ta'limning metodikasi va nazariyasini chuqur egallagan ijodkor shaxslar bo'lib etishishlari talab etiladi.

Zamonaviy badiiy ta'limning muhim elementi har bir o'quvchining individual ehtiyojlariga e'tibor berishdir. Bu o'z navbatida asrlar davomida shakllanib kelgan badiiy ta'lim jarayonida ustoz-shogirt o'rtasidagi individual muloqotga yanada ahamiyat berish kerakligini ta'kidlaydi. Zamonaviy pedagogika nafaqat texnik ko'nikmalarni egallashga emas, balki ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Bu shaxsiyatning hissiy tomoni bilan ishlash, ko'rish va his qilish qobiliyatini, shuningdek, buni san'at orqali ifodalashni o'rganishni o'z ichiga oladi.

So'nggi o'n yilliklarda o'quvchilarga hayotiy muammolar ustida ishlash, olingan bilimlarni qo'llash va ijodkorlikni rivojlantirish imkonini beruvchi loyiha usuli keng qo'llanilmoqda. Bu san'at asarini yaratish yoki madaniy loyihalar, ko'rgazmalar va tanlovlarda ishtirok etish orqali ta'minlash mumkin.

Zamonaviy san'at tobora ko'proq fanlararo aloqador bo'lib bormoqda va ta'lim buni aks ettirishi kerak. San'at ta'limi falsafa, psixologiya, texnologiya va hatto tadbirkorlik kabi sohalar bilan tobora ko'proq kesishmoqda. Bu talabalarga dunyo haqida kengroq tasavvurni rivojlantirishga va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashishga yordam beradi.

Badiiy ta'limning nazariy asoslari bir nechta asosiy tushunchalarni o'z ichiga oladi. Badiiy ta'lim madaniy va tarixiy an'analar bilan bog'liq bo'lishi kerakligini hisobga olish muhimdir. O'quv jarayoni talabalarga nafaqat ko'nikmalarni egallashga, balki madaniy merosni tushunish va qadrlashga, uning tashuvchisi va transformatoriga aylanishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Oliy badiiy ta'lim (K.Behzod Milliy rassomlik va dizayn instituti va yurtimizdagi Pedagogik yo'nalishdagi institut va universitetlar) tizimida badiiy savodxonlikning nazariy asoslari mavjud an'ana doirasida yuzaki amaliy mashg'ulotlar mobaynida qisqagina ma'ruza yoki suhbat tarzida yuritib kelingan.

Ushbu ma'ruzalar ko'p hollarda mutaxassislik fanlari o'qituvchilari o'zlari anglagan darajada ta'lim sohalari nazariy jihatlarini doirasida olib borilardi. Oqibatda, badiiy savodxonlikning nazariy asoslari o'quv kursi yuqorida ko'rsatilganlar doirasi bilan cheklanib qolmoqda. Vaholanki, bo'lg'usi rassom badiiy ta'lim mobaynida tasviriy san'atga doir ashyolar, plastik anatomiya, havo va chiziqli perspektiva, kompozitsiya hamda ayrim ixtisosliklarda esa loyihalashga doir bilimlar egallashi lozimligi belgilangan.

XXI asr san'at ta'limiga e'tibor tanqidiy va tahliliy yondashuvni rivojlantirishga o'tmoqda. Bu nafaqat badiiy asarlar yaratish, balki ularni talqin qilish, tahlil qilish va madaniy hodisalarni idrok etish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi.

Zamonaviy san'atda ijtimoiy mas'uliyat muhim o'rin tutadi. Badiiy ta'lim o'quvchilarda san'at yaratilgan ijtimoiy, siyosiy va ekologik sharoitlarni hisobga olish qobiliyatini rivojlantirishi kerak. Badiiy ta'lim nazariyasi rassomning ijtimoiy jarayonlarning faol ishtirokchisi bo'lishi mumkinligi va bo'lishi kerakligiga e'tibor qaratadi.

ADABIYOTLAR:

1. Акилова. К.Б. Народное декоративно-прикладное искусство Узбекистана. XX век – Алматы: PRINT-S, 2005. – 228 с.
2. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. - М.: Искусство, 1982. – 270 с.
3. Молева Н.М. Выдающиеся русские художники-педагоги. - М., Просвещение, 1991. – 388 с.